TARIX

UDK: 327(571.6):(5):339.9 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a32**

O‘ZBEKISTONNING OSIYO DAVLATLARI BILAN HAMKORLIK YO‘NALISHLARI (ASEAN DAVLATLARI MISOLIDA)

НАПРАВЛЕНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА СО СТРАНАМИ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ СТРАН АСЕАН)

DIRECTIONS OF COOPERATION OF UZBEKISTAN WITH ASIAN COUNTRIES (BASED ON THE EXAMPLE OF ASEAN COUNTRIES)

[1]Tolibova Sanobar Ruzikulovna

[1]O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1991-yildan 2019-yil oxirigacha O‘zbekiston Respublikasi va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida madaniy aloqalarning o‘rnatilishi tarixi va rivojlanishning zamonaviy istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida yaxshi munosabatlar o‘rnatildi. O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, ammo 2017-yil Madaniy sohadagi hamkorlik beqaror rivojlandi. Amaldagi chora-tadbirlar mamlakatlarning katta salohiyatga ega ekanligini, hamkorlik o‘zaro manfaatli ekanini isbotlaydi. O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar ikki davlat o‘rtasidagi davrlar, o‘zgarishlar, hamkorlik va muammolarni qiyosiy tahlil qilish orqali o‘rganiladi. Tahliliy qarashlar asosida iqtisodiyot va madaniyat sohalaridagi munosabatlarning roli ochib beriladi. Maqolada O‘zbekiston va ASEANga a’zo davlatlar o‘rtasidagi ushbu sohalardagi hamkorlikdagi yutuqlar va muammolar haqida so‘z boradi. Ilmiy maqolaning yangiligi 1991-2019-yillarda O‘zbekiston va ASEAN mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarning jihatlarini yoritib berishdan iborat: Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining bu boradagi boy tajribasi va hamkorlik imkoniyatlarini aniqlashga harakat qilindi; O‘zbekiston bilan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar notekis rivojlangan; O‘zbekiston mintaqadagi barcha davlatlar bilan faol aloqalarni davom ettirmagan. Uzoq yillik hamkorlik tarixini inobatga olgan holda, O‘zbekiston yaqin kelajakda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi va rivojlantirishni davom ettirishi ta’kidlandi.

Аннотация

В данной статье рассмотрены история установления культурных связей и современные перспективы развития между Республикой Узбекистан и странами Юго-Восточной Азии с 1991 г. до конца 2019 г. В первые годы независимости между Республикой Узбекистан и странами Юго-Восточной Азии установились хорошие отношения, но 2017 года сотрудничество в культурной сфере развивалось нестабильно. Нынешние меры доказывают, что страны имеют большой потенциал и сотрудничество является взаимовыгодным. Экономические связи между Узбекистаном и странами Юго-Восточной Азии изучены на основе сравнительного анализа периодов, изменений, сотрудничества и проблем между двумя странами. На основе аналитических взглядов выявлена роль взаимоотношений в сферах экономики и культуры. В статье указаны достижения и проблемы в сотрудничестве по данным направлениям между Узбекистаном и государствами-членами АСЕАН. Новизна научной статьи заключается в освещении аспектов экономических и культурно-гуманитарных связей Узбекистан со странами АСЕАН в 1991-2019 гг.; предпринимались усилия по выявлению богатого опыта стран Юго-Восточной Азии в этой сфере и возможностей для сотрудничества; отношения между Узбекистана и странами Юго-Восточной Азии развиты неравномерно; Узбекистан не поддерживал активные отношения со всеми странами региона. Принимая во внимание историю давнего сотрудничества, указано, что в ближайшее время Узбекистан наладит и продолжит развивать сотрудничество со странами Юго-Восточной Азии.

Abstract

This article discusses the history of establishing cultural ties and modern development prospects between the Republic of Uzbekistan and the countries of Southeast Asia from 1991 to the end of 2019. In the first years of independence, good relations were established between the Republic of Uzbekistan and the countries of Southeast Asia, but in 2017 cooperation in the cultural sphere developed unsteadily. The current measures prove that countries have great potential and cooperation is mutually beneficial. Economic ties between Uzbekistan and the countries of Southeast Asia are studied on the basis of a comparative analysis of periods, changes, cooperation and problems between the two countries. On the basis of analytical views, the role of relationships in the spheres of economy and culture is revealed. The article indicates the achievements and problems in cooperation along these lines between Uzbekistan and the ASEAN member states. The novelty of the scientific article lies in highlighting the aspects of economic, cultural and humanitarian relations between Uzbekistan and the ASEAN countries in 1991-2019; efforts were made to identify the rich experience of the countries of Southeast Asia in this area and opportunities for cooperation; relations between Uzbekistan and the countries of Southeast Asia are unevenly developed; Uzbekistan did not maintain active relations with all the countries of the region.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, tashqi siyosat, taraqqiyot, madaniy-gumanitar hamkorlik, ta’lim, turizm.*

Ключевые слова: *Узбекистан, страны Юго-Восточной Азии, внешняя политика, развитие, культурно-гуманитарное сотрудничество, образование, туризм.*

Key words: *Uzbekistan, countries of Southeast Asia, foreign policy, development, cultural and humanitarian cooperation, education, tourism.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama munosabatlarining zamonaviy holati va rivojlanish yo‘lidagi aloqalarning asosiy yo‘nalishlari: siyosiy-iqtisodiy, ta’lim va turizm sohasidagi hamkorlikdagi erishilgan yutuqlar va muammolar haqida maqolada tahliliy fikr va qarashlar keltirilgan.

Munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishidan boshlab davlatlarning hukumat rahbarlari uchrashuvlari, parlamentlararo hamkorliklar, elchixona va do‘stlik jamiyatlarining siyosiy faolligi natijasida O‘zbekiston va ASEAN tashkilotiga a’zo davlatlarning hamkorlik munosabatlari yangicha shaklga kirdi.

O‘zbekiston Respublikasining Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari kam o‘rganilgan tadqiqot ishi bo‘lib, davlatlararo savdo-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-gumanitar sohalarda olib borilayotgan hamkorlikning natijalari, yutuq va muammolarini ilmiy tahlil qilish va yaqin kelajakda soha rivoji uchun ushbu davlatlarning boy tajribasidan keng foydalanish imkoniyatlarini ochib berish maqsad qilingan.

Davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalar bir maromda rivojlanmaganligi va ayrim Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan nofaol aloqalar yo‘lga qo‘yilganligining asosiy sabablari, bugungi kunga qadar O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy aloqalari kompeks o‘rganilmaganligi maqolaning yangiligi hisoblanadi.

O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro aloqalarning o‘rni va roli, 1991-2016 va 2017 yildan hozirgi kunga qadar siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda olib borilgan aloqalari qiyosiy tahlil qilingan. Xulosa o‘rnida istiqbolda o‘zaro munosabatlarni yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar keltiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekistonning Osiyodagi yetakchi davlatlari bilan, xususan, Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Janubiy Osiyo davlatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik munosabatlari turli yo‘nalishlar kesimida tadqiq qilingan. Biroq O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalari kam o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. ASEAN tashkiloti davlatlari bilan hamkorligi masalalari F.Usarov, G.Djuraeva, S.Usarov, O.Almardonov, I.Shakirovlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, F.Usarovning dissertatsiyasida O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro iqtisodiy va madaniy sohalardagi hamkorligi Malayziya davlati misolida, 1991-2005 yillar kontekstida, S.Usarov tadqiqotida O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyoning yetakchi-Malayziya, Indoneziya va Singapur davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari, I.Shakirov ishida O‘zbekistonning mustaqillik yillarida Singapur bilan munosabatlari tarixi yoritib berilgan. Shuningdek, G.Djuraevaning tadqiqotida Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarini amalga oshirishda Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi xalqaro munosabatlar tizimidagi ijobiy tajriba va ASEAN tashkilotining o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanishdagi imkoniyatlari tadqiq etilgan. Biroq mazkur tadqiqotlar O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyoning o‘n bitta davlati bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy-gumanitar yo‘nalishdagi hamkorligi tarixiy jihatdan maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Osiyo mamlakatlari dunyo siyosatida har doim muhim o‘rin egallagan. “Sovuq urushi”ning tugashi, ikki qutbli xalqaro tizimdan ko‘p qutbli tizimga o‘tilishi Osiyodagi yangi davlatlarning o‘z mustaqilligini jiddiy mustahkamlab, zamonaviy xalqaro munosabatlarda tobora kattaroq rol o‘ynashiga imkoniyatlar ochib berdi.

So‘nggi yillarda jahon siyosatida o‘z o‘rnini mustahkamlayotgan O‘zbekiston ham o‘zining xalqaro aloqalar geografiyasini kengaytirmoqda. Mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etuvchi Osiyo–Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari bilan

munosabatlar O‘zbekistonning uzoq muddatga mo‘ljallangan milliy manfaatlariga mos tushadi[2]. Bu borada Osiyo-Tinch okeani mintaqasida integratsion jarayonlarni boshlab bergan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari taraqqiyoti va yutuqlarining o‘ziga xosliklarini inobatga olgan O‘zbekiston hukumati mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni o‘rnatish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari iqtisodiy aloqalari

O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqdi va oxirgi yillarda ochiq, tenglikka asoslangan, konstruktiv tashqi siyosat yuritib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining ASEAN tashkiloti davlatlari bilan mustaqillikning dastlabki davrida* hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yildi. Hamkorlikda asosiy e’tibor siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarga qaratildi. Jumladan, O‘zbekistonni 1997-yilda Indoneziya bilan 1800 ming, Malayziya bilan 11540.2 ming va Singapur bilan 25657.4 ming AQSh dollari miqdorida tovar ayriboshlash hajmiga ega bo‘ldi, 2010-yilda esa O‘zbekiston-Indoneziya 5.5 mln, O‘zbekiston-Malayziya 72.4 mln va O‘zbekiston-Singapur 193.5 mln AQSh dollarini tashkil etgan[3]. 2019-yilga kelib, O‘zbekiston va Indoneziya davlatlari o‘rtasida savdo aylanma hajmi 44 mln[4], O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasida 116.2 mln[5], Singapur davlati bilan bu ko‘rsatkich 174,2 million AQSh dollarini tashkil etdi[6]. 2023-yilda Sh.Mirziyoyevning Singapur davlatiga rasmiy tashrifi doirasida O‘zbekistonning Singapur bilan tovar ayirboshlash ikki barovarga oshgani, respublikada Singapur kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 4 karra ko‘paygani hamda O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 700 million dollarga yetgani qayd etildi[7]. Mazkur davlatlar ASEAN tashkilotidagi O‘zbekistonning muhim savdo sheriklari hisoblansada, yuqoridagi ko‘rsatkichlar har ikki tomonlarning tashqi savdodagi imkoniyati va salohiyati darajasiga nomutanosibligi haqida xulosa beradi. Bunga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, geografik joylashuv tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlarini belgilovchi muhim omil[8] ekanligini inobatga olsa, O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari orasidagi masofaning olisligi, mintaqa mamlakatlarining deyarli barchasi dengiz orqali savdo qilishi kabi omillar ikki karra dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan O‘zbekiston bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda murakkablik kasb etib kelmoqda.

Ikkinchidan, 1997-1998 yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan iqtisodiy inqiroz O‘zbekiston Respublikasi va ASEAN davlatlari bilan savdo aloqalariga ta’sir etmasdan qolmadi va bu holat keyingi o‘n yilliklarda o‘zaro iqtisodiy aloqalarda sezilib turdi.

Uchinchidan, O‘zbekiston uchun zarur bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mutasaddi idoralar va ishbilarmon doirasi vakillari tashabbusining muayyan darajadagi sustligi, 2017-yilgacha xorijiy sarmoyalarni kiritish mexanizmidagi ayrim to‘siqlarning mavjudligi kabi muammolar har ikki tomonning savdo munosabatlarini katta raqamlarga chiqarishga ko‘mak bermagan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi bilan ASEANga a’zo har bir davlat o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning siyosiy va iqtisodiy sharoitlar bilan belgilanadigan o‘ziga xos maqsad va vazifalari mavjud[9]. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yangi hukumatning iqtisodiyotni erkinlashtirish, yanada ochiq, xalqaro integratsiyalashgan va raqobatbardosh bozor

---

[2] O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati Konsepsiyasi. 2012-yil 10-sentabrdagi O‘RQ – 330- sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan . O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2012. №9/1(1437). – B.13

*Vetnam Sotsialistik Respublikasi, Malayziya, Indoneziya, Laos Xalq Demokratik Respublikasi, Filippin Respublikasi, Tailand Qirolligi davlatlari bilan 1992 yil, Kambodja Qirolligi bilan 1995 yil, Bruney-Darussalom davlati bilan 1996 yil, Myanma Ittifoqi Respublikasi bilan 1997 yil, Singapur Respublikasi bilan 2007 yil hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi Joriy Arxivi// Qo‘mitaning tadqiqotchiga taqdim etgan ma’lumotlari asosida keltirilmoqda.

[4] O`zbekiston-Indoneziya munosabatlari. https://www.mfa.uz/uz/pages/with-asia-pacific (15.06.2022)

[5] O`zbekiston-Malayziya munosabatlari. https://www.mfa.uz/uz/pages/with-asia-pacific (15.06.2022)

[6] O`zbekiston-Singapur munosabatlari. https://www.mfa.uz/uz/pages/with-asia-pacific (15.06.2022)

[7] Yangi O‘zbekiston. №11(800), 2023 yil 18 yanvar. –B.1.

[8] Safoev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. –T.: 2005. Patent Press. –B. 8-9.

[9] Шарапов А.А. Интеграционные процессы в Азиатско-Тихоокеанском регионе. Хозяйство и право. –Т.: 2004. №4. –С. 75-77.

iqtisodiyotini qurish bo‘yicha olib borilayotgan tashabbuslari natijasida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari yangi rivojlanish bosqichiga o‘tganidan dalolat beradi. Xususan, Malayziya, Indoneziya, Singapur, Tailand davlatlari bilan iqtisodiyot, tovar ayriboshlash, investitsiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, turizm sohasida, Vetnam, Filippin bilan qishloq xo‘jaligi va baliqchilik, sog‘liqni saqlash hamda o‘zaro gumanitar yordam sohasida faol hamkorlik o‘rnatilgan. Biroq, O‘zbekistonning Kambodja, Myanma, Laos, Bruney-Darussalam davlatlari bilan hamkorlikda mazkur davlatlar tashqi siyosatining beqarorligi, iqtisodiyotining asosiy qismi agrar xo‘jalikka asoslanganligi yoki davlat iqtisodi diverfikatsiyalanmaganligi kabi omillar sabab o‘zaro aloqalar hozirgi davrda ham nisbatdan sustligicha qolmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari hamkorligini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Xususan, istiqbolda “11+1” (Janubi-Sharqiy Osiyo+O‘zbekiston) formatini tuzish va ushbu format doirasi O‘zbekiston va ASEAN davlatlari xukumat rahbarlari rasmiy uchrashuvlarini tashkil etish, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish, Singapur va Indoneziya davlatlarining iqtisodiyotni diverfikatsiya va modernizatsiya qilish borasidagi boy tajribasini tadbiq qilish, Vetnam va Kambodja bilan qishloq xo‘jaligi va baliqchilik sanoatini takomillashtirish hamda Malayziya bilan “halal” brendi ostida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, o‘z navbatida, ushbu davlatlarga avtomobil, quruq meva va boshqa milliy mahsulotlar eksportini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yangi imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiq.

Ta’lim sohasidagi munosabatlarning rivojlantirish istiqbollari

Globallashuv sharoitida ta’lim sohasida xalqaro hamkorlik aloqalarni rivojlantirish, sohada yetakchi davlatlarning boy tajribasini o‘rganish va amaliyotda qo‘llash O‘zbekistonda ta’lim sifatini yaxshilash va sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan ta’lim sohasidagi o‘zaro munosabatlar mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga zarur malakali kadrlar tayyorlash, ushbu mintaqadagi ilg‘or davlatlar tajribasini o‘rganish, ilmni ko‘p talab etadigan sohalarda innovatsiyalarni joriy etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining O‘zbekistonda yetakchi oliy o‘quv yurtlari, xususan, 2008 yilda Toshkent shahrida Singapur davlatining Singapur menedjmentni rivojlantirish instituti (*MDIS – Managmant Devoelopment Institute of Singapore*)ning filiali tashkil etildi[10]. Mazkur oliygohning tashkil etilganiga ko‘p vaqt bo‘lmaganiga qaramay, ijobiy natijalarni qo‘lga kiritdi. Dastlabki yilda oliygohga 225 nafar talaba qabul qilingan bo‘lsa, 2020-yilga kelib umumiy talabalar soni 5100 nafarni yetdi[11].

O‘zbekiston va Malayziya hamkorligining asosiy yo‘nalishlaridan biri ta’lim sohasi hisoblanadi. Bu boradagi hamkorlikning amaliy natijasi 2021 yilda birinchi xorijiy oliy ta’lim muassasasi – Urganch shahridagi “Binary” xalqaro universiteti filiallining ochilishi bo‘ldi. Bundan tashqari, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Respublika biznes va boshqaruv oliy maktabi va Malayziyaning Islom moliyasi ta’limi xalqaro markazi, Putra biznes maktabi, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filiali, shuningdek, Malayziyaning “City” universiteti, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti va Malayziya Linkoln universiteti kolleji, Navoiy davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti va Malayziya Menejment va ilm-fan universiteti o‘rtasida hamkorlik shartnomalari imzolandi[12]. Mazkur hamkorlik natijasida O‘zbekistonda xalqaro menejment va tadbirkorlik, bank va marketing yo‘nalishida mutaxassis kadrlar tayyorlanmoqda. Bundan tashqari, respublikadagi oliy ta’lim muassasalari qoshida indonez, vetnam hamda malay tillari va madaniyati markazlari faoliyat yuritadi.

Ta’kidlash kerakki, mintaqa davlatlarining oliy ta’lim muassasalari Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities kabi xalqaro reytinglarda nufuzli salohiyatga ega. Shu sabab, talabalar almashinuvi va xorijlik

[10] Xorijiy mamlakatlarda uzluksiz ta’lim tizimi-Singapurda ta’lim // Uzluksiz ta’lim. –T.: 2013, №6, -B.119-125.

[11] TSMRI haqida. https://www.mdis.uz/oz/menu/overview (04.08.2022)

[12] Элchi Ravshan Usmonov: Pandemия O‘zbekiston-Malayzия munosabatlarini faollashtirish uchun qo‘shimcha turtki bo‘lib xizmat qildi. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/elchi_ravshan_usmonov_pandemiya_uzbekiston_malayziya_munosabatlarini_faollashtirish_uchun_qushimcha_turtki_bulib_xizmat_qildi.html (04.08.2022)

talabalarning mintaqa davlatlari oliy ta’lim muassasalarida o‘qish istagi yildan-yilga o‘smoqda. Jumladan, Singapur istiqbolda 150 mingdan ziyod xorijiy talabalarni o‘qishga jalb etishni rejalashtirmoqda. Bu o‘z o‘rnida, mamlakatga 2,4 mlrd. dollar foyda keltiradi hamda Singapur yalpi ichki mahsulotining 5% ga o‘sishini taminlaydi. Mamlakatda ta’lim tizimiga sarflanadigan xarajatlar milliy budjetning 20%ini tashkil etadi[13]. Malayziya YUNESKO tomonidan chet ellik talabalar soni bo‘yicha dunyo o‘ntaligiga kiritilgan. Hozir Malayziyada 100 mingdan ziyod xorijlik talaba tahsil olmoqda. Birgina 2021 yilda Malayziya OTMlariga 150ga yaqin davlatdan 40 mingdan ziyod talaba qabul qilingan[14]. Bu esa ushbu davlatlarning ta’limga investitsiya muhiti yaxshiligidan dalolat beradi.

Bugun Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi xalqaro reytinglarda top-100 talikka kiruvchi 40 ta oliy ta’lim muassasaning diplomi O‘zbekistonda nostrifikatsiya qilinadi. Shu sabab so‘nggi yillarda o‘zbekistonlik talabalarning mazkur davlatlardagi universitetlarda tahsil olishi ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Biroq, O‘zbekiston tadqiqotchilari va olimlarining mazkur mintaqa davlatlariga ilmiy stajirovkalari, tajriba o‘rganish bo‘yicha akademik almashinuvlari, magistr, falsafa doktori va fan doktori bo‘yicha dissertatsiya amaliyoti yuzasidan ilmiy dasturlarda ishtiroki boshqa mamlakatlarga qaraganda (jumladan, Yevropa va Osiyoning yetakchi davlatlari) nisbatan sust. Bunga asosiy sabab o‘zbekistonlik talabgorlarning asosiy e’tibori G‘arb davlatlari va Osiyoning ayrim yetakchi mamlakatlariga qaratilganligidir. Ta’kidlash kerakki, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Bruney davlatlari tomonidan har yili mazkur amaliyot yuzasidan maxsus stipendiyalar, olimlar uchun dasturlar e’lon qilinadi. Shundan kelib chiqqan holda, o‘zbekistonlik professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, talabalar fanning turli sohalari bo‘yicha Janubi-Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida akademik almashinuvlarni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, O‘zbekistonda ushbu mintaqa mamlakatlarining yetakchi oliy o‘quv yurtlari filiallarini hamda qo‘shma fakultetlarni ochish maqsadga muvofiq. Shuningdek, istiqbolda O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan ta’lim sohasidagi aloqalarni tizimli ravishda mustahkamlash, mintaqadagi xalqaro reytingi yuqori bo‘lgan universitet ta’lim tizimi tajribasini o‘rganish va xalqaro standartlar darajasidagi jihatlarini O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq qilish hamda o‘zbekistonlik professor-o‘qituvchilarning akademik almashinuv yo‘nalishini rivojlantirish kerak. Xususan, Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda O‘zR FA Sharqshunoslik instituti, Termizdagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi kabi muassasalar va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining ushbu sohadagi ilmiy markaz va universitetlari o‘rtasida aloqalar o‘rnatish va rivojlantirish lozim.

Mintaqa davlatlari bilan turizm sohasidagi hamkorlik

O‘zbekistonning ASEAN davlatlari bilan o‘zaro munosabatlarida turizm sohasi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlardagi muhtasham me’moriy yodgorliklar, Islom sivilizatsiyasining umumiy merosi, O‘zbekistonning go‘zal tabiati va iqlimi, shuningdek, o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi mintaqa davlatlaridan tashrif buyuruvchi sayyohlarni doimo o‘ziga jalb qilib kelgan.

2017-2019-yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada taraqqiy etishga qaratilgan 60 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi ishlab chiqilib, ularning 50 dan ortig‘i qabul qilingan.

Ta’kidlash joizki, respublikaga Osiyo qit’asidan tashrif buyuruvchilar orasida Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridan sayyohlar salmog‘i ko‘proq. Xususan, 2019-yilda O‘zbekistonga Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan turli maqsadlarda tashrif buyurganlarning asosiy salmog‘ini mintaqaning yetakchi davlatlari kelganlar tashkil etadi. Bu borada, Malayziya va Indoneziya kabi mintaqaning musulmon davlatlaridan tashriflar ko‘p bo‘lsa, eng kam Laos va Myanma davlatlaridan kelganlardir. Bunda Malayziya, Indoneziya, Singapur, Vetnam, Filippin va Tailand davlatlaridan tashrif buyurganlar uchun O‘zbekistonda 30 kunlik vizasiz tartibning joriy etilishi, 2019-yil may oyidan boshlab Malayziyaning Kuala-Lampur shahri orqali Indoneziya poytaxtiga haftada ikki marotaba

[13]Xorijiy mamlakatlarda uzluksiz ta’lim tizimi-Singapurda ta’lim // Uzluksiz ta’lim. –T.: 2013, №6, -B.119-125.

[14] O‘zbekiston-Malayzия oliy ta’lim vakillari uchrashdi. http://www.interpress.uz/ozbekiston-malajziya-olij-talim-vakillari-uchrashdi/ (04.08.2022)

reyslarni amalga oshirishni yo‘lga qo‘yilgani, 2018-2019 yillarda ziyorat turizmi yo‘nalishida “Naqshband turizm festivali” xalqaro tadbirining o‘tkazilishi, shuningdek, Singapurning S.E.A. BusinessCentrePte. Ltd. (O‘zbekiston-Singapur turizm markazi) bilan hamkorlikda dunyoda yagona – “Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo turizmi xalqaro tadqiqot markazi” (CASEA-InTouReC)ga asos solinib, amaliy ishlar o‘z natijasini berayotgani ko‘rsatadi. Biroq Laos, Myanma va Kambodja davlatlaridan turli maqsadlarda ayniqsa, sayyohat uchun kelganlar salmog‘i mintaqaning boshqa davlatlariga qaraganda nisbatdan kam. Bu holatni bevosita o‘zaro turizm sohasida hukumat va idoralararo bitimlar imzolanmaganligi, avia qatnovlarining yo‘lga qo‘yilmaganligi, mazkur davlatlarda O‘zbekistonning sayyohlik salohiyatini o‘zida aks ettiradigan targ‘ibot ishlarining sust olib borilayotganligi kabi omillar bilan izohlash mumkin.

So‘nggi o‘n yillikda o‘zbekistonlik sayyohlarning Malayziya davlatiga tashriflari ko‘paydi. Bu holat bevosita O‘zbekistonda mazkur davlatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, dunyodagi turizm rivojlangan davlatlar orasida o‘ntalikka kiruvchi Tailand davlatiga ham tashriflar ko‘paymoqda. Bunda avia chipta narxlari arzonligi, turistik firmalari tomonidan keng targ‘ibotning yo‘lga qo‘yilganligini ta’kidlash lozim. Biroq o‘zbekistonliklarning mazkur davlatga borish uchun boshqa davlatlar orqali uchishi ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri avia qatnovlarning mavjud emasligi har ikki davlat sayyohlari uchun qiyinchilik tug‘dirmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, 2020-yildan buyon dunyo turizm sohasiga, barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan global muammolardan biri koronavirus (COVID-19) pandemiyasi hisoblanadi. Koronavirus pandemiyasi sababli birgina 2020-yilning yanvar-may oralig‘ida jahon turizm industriyasi 320 milliard AQSh dollari miqdoridagi daromadni yo‘qotdi. Butunjahon turizm tashkilotining ma’lumot berishicha bu ko‘rsatkich 2009-yildagi global moliyaviy – iqtisodiy inqiroz natijasida soha tomonidan ko‘rilgan zarardan uch baravar ko‘pdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 28-maydagi PF-6002-son «Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son «O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmon qabul qilindi. Ushbu farmonda pandemiya sharoitidan kelib chiqib, belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mavjud muammolarni yechish va sohani rag‘batlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Pandemiya davri O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining turizm sohasidagi hamkorligiga ham ta’sir qildi. Bu davrda elchixonalar tomonidan mezbon mamlakat hududida bo‘lib turgan talabalar va fuqarolar bilan doimiy aloqa o‘rnatdi. Vataniga qayta olmagan fuqarolarni o‘z yurtiga qaytarish uchun charter reyslari yo‘lga qo‘yildi. Hamjihatlikda amalga oshirilgan say’-harakatlar natijasida O‘zbekiston Malayziya, Indoneziya, Tailand va Vetnam davlatlari bilan turizm sohasidagi hamkorlik yanada rivojlandi. Xususan, mintaqaning musulmon davlatlaridan biri Malayziyada ziyorat turizmini targ‘ib qilish bo‘yicha elchixonalar tomonidan maqsadli ishlar amalga oshirildi. Turli darajadagi muzokaralar natijasida respublika sayyohlik sohasi vakillari uchun veb-seminarlar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, qo‘shma ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish, Malayziyadagi masjidlarda juma namozida O‘zbekiston ziyorat turizmini targ‘ib qilish, halol sanoatida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi[15].

Turizm sohasidagi hamkorlikning kelgusi rivojida O‘zbekiston Malayziya va Indoneziya davlatlari bilan turizm sohasiga oid hukumatlararo bitimlarni imzolash hamda ziyorat turizm yo‘nalishlarini kengaytirishda mintaqadagi nafaqat musulmon davlatlar, balki buddaviylik diniga e’tiqod qiluvchilarni mamlakatdagi buddaviylik manzilgohlariga tashriflari uchun turizm yo‘nalishlarini tashkil etish lozim. Bu turizm sohasidagi aloqalarning rivojlanishiga va xalqlar do‘stligini har tomonlama mustahkamlashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasining Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan madaniy-gumanitar aloqalariga oid tadqiqotda quyidagi xulosalarga kelingan:

[15] Usmonov R. Malayzия O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan Janubi-Sharqiy Osiёdagi birinchi davlatdir. https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=malayziya_o%E2%80%98zbekiston_mustaqilligini_tan_olgan_janubi-sharqiy_osiyodagi_birinchi_davlatdir-ujD. (21.02.22)

TARIX

Birinchidan, O‘zbekiston Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan mustaqillikning ilk yillarida o‘zaro diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari turli darajada borganligi ko‘zga tashlanadi. Xususan, Malayziya, Singapur, Indoneziya va Tailand kabi mintaqaning rivojlangan davlatlari bilan hamkorligi faolligini ko‘rish mumkin. Biroq, Myanma, Laos, Kambodja davlatlari bilan O‘zbekistonning o‘zaro siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy munosabatlar mintaqaning boshqa mamlakatlariga nisbatan faol emas. Bunga mazkur davlatlarning iqtisodiyoti qishloq xo‘jaligiga asoslangan agrar davlat ekanligi, mamlakatlarning tashqi va ichki siyosatidagi beqarorlik hamda diniy masalalardagi qarama-qarshiliklar kabi omillar bilan izohlash mumkin. O‘z navbatida, O‘zbekiston Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni ham yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, mamlakatda mintaqa davlatlari investitsiyalari ishtirokida qo‘shma korxonalar va loyihalar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, hamkorlikni yanada rivojlantirish imkoni mavjud. Jumladan, O‘zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan “11+1” (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va O‘zbekiston) hamda BMT, ASEAN, ShHT kabi xalqaro tuzilmalar, “Bir makon, bir yo‘l” singari xalqaro tashabbuslar formatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va transport-kommunikatsiya sohalarida o‘zaro aloqalarni mustahkamlash lozim.

Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida o‘zbek olimlari ilm-fan sohasida Janubi-Sharqiy Osiyoning yetakchi mamlakatlari ilg‘or tajribasini o‘rgandilar. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarmoq institutlari va boshqa ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari mazkur mintaqa mamlakatlari bilan o‘zaro akademik almashinuv dasturlari doirasida, qo‘shma loyihalarni amalga oshirdilar, xalqaro anjumanlar tashkil etib, stajirovkalarda bo‘ldilar. Biroq mintaqada ta’lim tizimidagi tendensiyalardan O‘zbekistonning keng foydalana olmayotganligi, xususan, akademiyalar o‘rtasida hamkorlikga oid “Yo‘l xarita”lari tuzilmaganligi, professor-o‘qituvchilarning qisqa va uzoq muddatli stajirovka va amaliyotining yo‘lga qo‘yilmaganligi, talabalar almashinuvi doir raqamlar imkoniyatlar doirasida pastligi kabi muammolar hali-hanus mavjud. Shu bois O‘zbekistonda Malayziya (University of Malaya, Albukhary International University), Singapur (National University of Singapore), Indoneziya (Indonesia University) davlatlarining xalqaro reytinglarda 500 talikka kiruvchi nufuzli oliy ta’lim muassasalari filiallarini hamda qo‘shma fakultetlarini tashkil etish, ziyorat turizmi, teletibbiyot, axborot texnologiyalari sohalarida oliy o‘quv yurtlari bilan o‘zaro o‘quv va akademik almashinuvlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, O‘zbekiston uchun bu mintaqaning turizm sohasi rivojlangan davlatlari tajribasini o‘rganish juda muhim. Mintaqa davlatlaridan O‘zbekistonga ham turistlar tashrif buyurishadi. Bunda asosan ziyorat turizmi yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘z navbatida, O‘zbekiston fuqarolari ham Janubi-Sharqiy Osiyoning yirik turistik hududlariga sayohat qilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston va mintaqa davlatlari o‘rtasida turizm sohasini rivojlantirish uchun hukumatlararo bitim imzolanmaganligi, turizm sohasi rivojlangan Tailand, Singapur va Vetnam davlatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muntazam aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilmaganligi, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida O‘zbekistonning turizm salohiyati yetarlicha targ‘ib qilinmayotganligi tomonlarning bu sohasidagi hamkorligida mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanmayotganligini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston-Indoneziya munosabatlari. https://www.mfa.uz/uz/pages/with-asia-pacific (15.06.2022) (Uzbekistan-Indonesia relations.)

2.O‘zbekiston-Malayziya munosabatlari. https://www.mfa.uz/uz/pages/with-asia-pacific (15.06.2022) (Uzbekistan-Malaysia relations)

3.O‘zbekiston-Singapur munosabatlari. https://www.mfa.uz/uz/pages/with-asia-pacific (15.06.2022) (Uzbekistan-Singapore relations)

4.Safoev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. –T.: Patent Press, 2005. –betlar 8-9. (Safoev S.S. Geopolitics in Central Asia. - T.: Patent Press, 2005. - pages 8-9.)

5.Yangi O‘zbekiston gazetasi. №11(800), 2023 yil 18 yanvar. –bet 1.(New Uzbekistan newspaper. No. 11(800), January 18, 2023. –page 1.)

6.TSMRI haqida. https://www.mdis.uz/oz/menu/overview (04.08.2022) (About TSMRI.)

7.Usmonov R. Malayziya O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan Janubi-Sharqiy Osiyodagi birinchi davlatdir https://dunyo.info/uz/site/inner?slug=malayziya_o%E2%80%98zbekiston_mustaqilligini_tan_olgan_janubi-sharqiy_osiyodagi_birinchi_davlatdir-ujD. (21.02.22) (Usmanov R. Malaysia is the first country in Southeast Asia to recognize the independence of Uzbekistan.)

8.Xorijiy mamlakatlarda uzluksiz ta'lim tizimi-Singapurda ta'lim // Uzluksiz ta'lim. –T.: 2013, №6, -betlar 119-125. (Continuous education system in foreign countries-Education in Singapore // Continuous education. - T.: 2013, No. 6, - pages 119-125.)

9.Шарапов А.А. Интеграционные процессы в Азиатско-Тихоокеанском регионе. Хозяйство и право. –Т.: 2004. №4. –С. 75-77. (Sharapov A.A. Integration processes in the Asia-Pacific region. Economics and law. –T.: 2004. No. 4. - pages 75-77.)

10. Elchi Ravshan Usmonov: Pandemiya O'zbekiston-Malayziya munosabatlarini faollashtirish uchun qo'shimcha turtki bo'lib xizmat qildi.

https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/elchi_ravshan_usmonov_pandemiya_uzbekiston_malayziya_munosabatlarini_faollashtirish_uchun_qushimcha_turtki_bulib_xizmat_qildi.html (04.08.2022) (Ambassador Ravshan Usmanov: The pandemic served as an additional impetus for the activation of Uzbekistan-Malaysia relations.)

11. O'zbekiston va jahon hamjamiyati: xalqaro munosabatlar va tashqi aloqalarni tashkil qilish / S.Jo'raev, O.Ahmedov, M.Rahimova. –T.: G'afur G'ulom, 2008. –betlar 13. (Uzbekistan and the world community: organization of international relations and foreign relations / S. Juraev, O. Ahmedov, M. Rahimova. - T.: Gafur Gulam, 2008. - pages 13.)

12. O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati Konsepsiyasi. 2012 yil 10 sentabrdagi O'RQ – 330-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. 2012. №9/1(1437). – bet 13. (Concept of foreign political activity of the Republic of Uzbekistan. Approved by the Law of the Republic of Uzbekistan No. 330 of September 10, 2012. Bulletin of the Chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan.)

13. O'zbekiston-Malayziya oliy ta'lim vakillari uchrashdi. http://www.interpress.uz/ozbekiston-malajziya-olij-talim-vakillari-uchrashdi/ (04.08.2022) (Uzbekistan-Malaysia representatives of higher education met.)

14. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati. Turistik oqim–2019.

https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/9388-2019. (05.08.2022) (Socio-economic situation of Uzbekistan. Tourist flow-2019.)